



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

**“ATROF-MUHIT VA OROLBO‘YI AHOLISI SALOMATLIGI”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI
24-OKTYABR 2025-YIL**



NUKUS 2025

limits for environmental noise exposure, necessitating further investigation into its health impacts.

Methods: Noise exposure data was obtained from strategic noise maps and linked to GIS data of Austrian buildings. Mortality data covering five years (2016-2021) was analyzed using Poisson regressions to evaluate the association between noise exposure at residential locations and mortality, specifically focusing on ischemic heart disease (IHD). The analysis adjusted for age, sex, and noise bands, with sensitivity analyses to assess the robustness of the findings.

Results: The study included 37,066,299 person years, with 372,638 deaths recorded over five years. Higher noise bands were associated with increased incidence rate ratios (IRR) for IHD and all-cause mortality. The IRR for IHD increased by approximately 3% per 5 dB increase in noise levels. Sensitivity analyses confirmed the robustness of these findings, with stronger effects observed for railway traffic noise compared to road traffic noise.

Conclusions: The findings underscore the significant health impacts of transportation noise, particularly on cardiovascular mortality. These results support the need for stricter noise regulations and comprehensive health impact assessments to mitigate the adverse effects of environmental noise exposure in Austria.

Key words: Environmental exposure; risk assessment; environmental epidemiology; community exposure; non-communicable diseases

SUV OBYEKTLARINING EKOLOGIYASI

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Sharipova S.A.,
Ikramova N.A., Latipova M.Z.
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti., Toshkent., O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada aholi yashash joylardagi ochiq suv havzalarining ifloslanish darajasini yillar dinamikasidagi olingan natijalari va ifloslanishni kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora tadbirlarni ilmiy asoslash hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: suv havzalari, ifloslanish, gigiyenik talablar, kislorodga bo‘lgan biokimyoviy ehtiyoj, organoleptik ko‘rsatkichlar, suv omborlari, mikrobiologik ko‘rsatkichlar.

ЭКОЛОГИЯ ВОДНЫХ ОБЪЕКТОВ

Шеркузиева Г.Ф., Саломова Ф.И., Шарипова С.А.,
Икрамова Н.А., Латипова М.З.
Ташкентский государственный медицинский университет,

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы санитарного контроля качества воды водоемов в динамике и научного обоснования мероприятий по охране воды водоемов от загрязнения.

Ключевые слова: водные объекты, загрязнения, гигиенические требования, биохимический потребность кислорода, органолептические показатели, вода, водохранилище, микробиологические показатели.

ECOLOGY OF WATER BODIES

Sherkuzieva G.F., Salomova F.I, Sharipova S.A.,

Ikramova N.A., Latipova M.Z.

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation. The article discusses the issues of sanitary control of water quality in reservoirs in dynamics and scientific substantiation of measures to protect water reservoirs from pollution.

Key words: water bodies, pollution, hygienic requirements, biochemical oxygen demand, organoleptic indicators, water, reservoirs, microbiological indicators.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev 19 sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan” Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritir ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz deb ko‘rsatib o‘tganlar.Global darajada, eng kamida 1,8 milliard kishi fekal moddalar bilan ifloslangan ichimlik suv manbalaridan foydalanmoqda. Ifloslangan suv diareya, vabo, dizenteriya, ich terlama va poliomiyelit kabi kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarini tashuvchi omil bo‘lishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ifloslangan ichimlik suvi har yili 500 000 dan ortiq o‘lim holatlariga sababchidir. 2025 yilga borib, dunyoning yarim aholisi suv tanqisligi mavjud bo‘lgan joylarda yashaydi.

Global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda [3,7]. Shu bilan birga o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan jarayonlar, ya’ni yangi texnik imkoniyatlar, joyning relyefi va suv xavzalaridan suv olish bir necha marotaba o‘sishi suv muammosini yuzaga keltirib chiqardi. Sug‘oriladigan yer maydonlarining o‘sishi bilan bir vaqtda paxta yetishtirishga mo‘ljallangan yer maydonlarini kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar yuzaga keldi.O‘zbekistonda paxtachilik sanoati – eng ko‘p suvni talab etadigan qishloq xo‘jalik ekini hisoblanadi va u ko‘p marta sug‘orishni talab etadi. Hozirda O‘zbekistondagi iqtisodiyat tarmoqlarida suvning ishlatilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln hektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90-91 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi, kommunal-maishiy xo‘jalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalaniladi. Irrigatsion tizimlarni yaratish bo‘yicha texnik imkoniyatlarni o‘lchovsiz o‘sib borishiga qaramasdan, ushbu tizimlarning o‘zi eskirgan texnologiyalar ko‘pligi bilan xarakterlanadi. Yuqoridagilar birgalikda suvning ekologik muammosi deb nomlanuvchi yangi yo‘nalishni yuzaga kelishi va suv zahiralari amaliy jihatdan kamayib ketishiga olib keladi [2,4].

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo davlatlarida suv muammosi sezilarli muvozanatlashmagan

omil bo‘lib hisoblanadi. Butunjahon resurslar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston suv stressiga moyil bo‘lgan 25 ta davlatlar qatoriga kiradi. Muammoni xalq etish qishloq xo‘jaligini tubdan isloh qilish, sanoatda suvni tejovchi va suvdan qayta foydalanish imkonini beruvchi texnologiyalarni qo‘llash, suvni chuchuklashtirish qurilmalari va chiqindi suvlarni zamonaviy tozalash inshootlarini amaliyotga joriy etish bilan belgilanadi. Hozirda suv havzalarining suvining keskin kamayishi va sanitariya ifloslanishidan muhofazalash katta miqdordagi moliyaviy vositalarni sarflanishi talab etadi.


Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy asoslangan gidroenergetik potentsiali 173 mlrd. kVt.s/yil bilan baholanadi, ulardan 84%ni Markaziy Osiyo davlatlariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa mazkur davlatlar uchun gidroenergetik potentsialni o‘zlashtirish istiqbolli bo‘lib hisoblanadi [5,6]. Ko‘plab daryo oqimlarida GESlarni yaratilganligiga qaramasdan, Markaziy Osiyodagi daryolar oqimlarining energetik imkoniyatlaridan foydalanish yuqori darajada emas. Gidroenergetik potentsialni qo‘llashni amaldagi darajasi yuqori emas, masalan O‘rta Osiyoda 18%, Qozog‘istonda esa 14%ni tashkil etadi. Rossiyaning Yevropa qismi, Uralda bu ko‘rsatkich 70%ni tashkil etadi. Shunday qilib, Markaziy Osiyo davlatlarining resurs ta‘minot muammosi – majmuaviy bo‘lib, u o‘z ichiga suv iste‘moli, elektroenergetika ta‘minotini qamrab oladi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari va Qozog‘iston iqtisodiyoti integratsiyasini suv ta‘minoti muammosi bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori darajasini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 2030 yilgacha elektr energiyasiga bo‘lgan talab yiliga taxminan 6-7 foizga o‘shishi bashorat qilingan. O‘zbekistonda yirik GESlar qurishning ham imkoni yo‘q, chunki suv havzalari tanqis, respublika hududidan atigi ikkita yirik daryo oqib o‘tadi. Demak, gidroenergetika bo‘yicha salohiyatimiz uncha katta emas, geografiyamiz bunga imkon ham bermaydi.

Ushbu muammoning asosiy elementi – suvdur. Mazkur sharoitda suvni tekin mahsulot deb hisoblashni davom ettirilishi – yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlar iqtisodiyotini buzilishiga va ular o‘rtasida ziddiyatni yuzaga kelishi uchun bevosita yo‘ldir. Shu sababli O‘zbekistonda muammoni xalq etishda kuchli qonunchilik yaratilgan, xususan “Suv va suvdan foydalanish” to‘g‘risidagi qonun mavjud. Qonunning 59 modda: Suv obyektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish quyidagilar ko‘rsatib qo‘yilgan: Suv obyektlaridan gidroenergetika ehtiyojlari uchun foydalanish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari manfaatlari hisobga olinib, qishloq va suv xo‘jaligi organlari bilan kelishilgan holda, shuningdek, agar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida, tegishli hollarda esa, qishloq va suv xo‘jaligi hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlarining qarorida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, suvlardan kompleks va oqilona foydalanish talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Gidroenergetika ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan suv obyektlaridan tabiiy sharoitlarga, xo‘jalik ehtiyojlari va o‘zga ehtiyojlarga qarab, boshqa maqsadlar uchun ham foydalaniladi [1.8].

Tadqiqotning maqsadi: Aholi yashash joylaridagi ochiq suv xavzalarining ekologo-gigiyenik baholash natijalari asosida aholining salomatligini saqlash va mustaxkamlashga qaratilgan sog‘lomlashtirish profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish. 2019-2021 yillar mobaynida suvning sifat ko‘rsatkichlarini retrospektiv tahlil qilish va sanitariya muhofazalash bo‘yicha profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqish va ilmiy asoslash.


Tekshirishning materiallari va usullari. Tadqiqotning predmeti sifatida axoli turar joylaridagi ochiq suv havzalari belgilab olindi. Tadqiqot usullari: instrumental, analitik statistik usullardan foydalandik.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz suv obyektlari suvining ifloslanish xolatini 2019-2021 yillar dinamikasida tekshirdik va quyidagi natijalarni oldik: 2019 yilda mikrobiologik ko‘rsatkichlarga umumiy olingan namunalar soni 3028 ta bo‘lib, ulardan 63 tasi (2,08%), 2020 yil umumiy olingan namunalar soni 2491 ta bo‘lib, ulardan 37 tasi (1,4%), 2021 yil esa umumiy olingan namunalar soni 2865 ta bo‘lib, ulardan 59 tasi (2,05%) gigiyenik talablarga javob bermagan (rasm 1).



Rasm 1. Ochiq suv xavzalari suvining mikrobiologik tahlil natijalari (2019-2021 yy)

Kuzatuv yillarida suv xavzalarining nafaqat mikrobiologik balkim sanitar kimyoviy ko‘rsatkichlarni ham laboratoriya tahlildan o‘tkazdik va quyidagi natijalarni oldik: 2019 yil umumiy olingan namunalar soni 1024 ta bo‘lib, ulardan 93 tasi (9,08%), 2020 yil umumiy olingan namunalar soni 781 ta bo‘lib, ulardan 68 tasi (8,7%), 2021 yil esa umumiy olingan namunalar soni 943 ta bo‘lib, ulardan 91 tasi (10,2%) gigiyenik talablarga javob bermagan (rasm 2).



Rasm 2. Ochiq suv havzalari suvining sanitar kimyoviy tahlil natijalari (2019-2021 yy).

Xulosa: Yuqorida olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkin, suvdan foydalanish joylaridagi suvning sifat ko‘rsatkichlari San Q va M №0318-15 “O‘zbekiston Respublikasida suv havzalari suvini muhofazalash bo‘yicha gigiyenik va epidemiyaga qarshi talablar” ga mos kelmagan. Ayniqsa suvning mikrobiologik ko‘rsatkichi bo‘yicha 2019 yili eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lgan, sanitar kimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa barcha yillarda mikrobiologik ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori bo‘lgan, xususan 2021 yil 10,2% namunalar gigiyenik talablarga mos kelmagan. Suv havzalari suvning sifat ko‘rsatkichlarini yillar bo‘yicha dinamikada monitoringini olib borish, ulardan turli maqsadlarda foydalanishda, xususan energetika sohasida va aholi salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga egadir, shu bilan birga ilmiy asoslangan profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ”Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”. T. 2011y.
2. San Q va M №0318-15 “O‘zbekiston Respublikasida suv havzalari suvini muhofazalash bo‘yicha gigiyenik va epidemiyaga qarshi talablar”
3. Искандарова Ш.Т. «Рациональные санитарно - гигиенические проблемы охраны водоемных источников и водоснабжение населения в специфических условиях Республики Узбекистан, - Т. 2001. стр 206-217
4. Мусаева, О. Т., Шеркузиева, Г. Ф., Исмоилова, У. Б., & Эргашева, Ш. К. (2016). Особенности течения диффузного нетоксического зоба во время беременности. International scientific review, (7 (17)), 97-98.
5. Шеркузиева Г.Ф., Данев Б.Д. и др //Гигиеническая оценка санитарного состояния реки «Сурхон». Международный научный журнал «Молодой ученых» спетс выпуск.-Российская Федерация .-2016г.№1(86) –С.35-38
6. Шеркузиева, Г.Ф., Саломова Ф.И., & Юлдашева Ф.У. (2023). Результаты санитарно-химических исследований воды.
7. Шеркузиева Г. Ф., Данаев Б.Ф., Жураева Н. Т., & Сайфутдинова, З. А. (2016). Гигиеническая оценка санитарного состояния реки Сурхан. Молодой ученых, (1), 104-107.
8. Шеркузиева, Г. Ф., & Мустанов, Ж. А. (2016). Гигиеническая оценка качества питьевой воды. Молодой ученых, (10), 552-555.

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА

Зайдуллаева М.О, Дауылбаева К.К.
Медицинский институт Каракалпакстана. г. Нукус, Узбекистан.
Кодиров А.Л.
студент 5-курса медико-профилактического направления МИК

Введение

Актуальность темы. С развитием промышленности увеличивается загрязнение окружающей среды. Опасности в первую очередь подвергается воздух. Промышленные предприятия выбрасывают в атмосферу такое количество газов или мелких частиц во взвешенном состоянии, что под угрозой оказалось здоровье. В связи с быстрым ростом населения городов возникают проблемы, очень близкие к проблемам индустриализации: